

Sizlardan bunga ajru-mukofot so‘ramayman



13:00 / 02.05.2021 1693

Ey birodarlarim! Nima uchun mendan qochyapsizlar? Nimadan qo‘rqyapsizlar? Menga sizlarning mol-dunyolaringiz kerak emas. Sizlardan hech narsa umidvor emasman. Sizlarga nasihat qilib, robbimning yuborgan narsasini sizlarga yetkazypman. **«Men sizlardan buning uchun haq-so‘ramasman. Mening ajrim faqatgina Robbul Olamiyn zimmasidadir»** (*Shu'aro surasi 109-oyat*).

Ey birodarlarim! Nima uchun menga itoat qilmayapsizlar, men sizlarga ishonchli nasihatchiman. Nima uchun odamlarga zulm qilib, ularni mollarini (nohaq) yeyayotganlarga itoat qilyapsizlar? Ular yerda gunoh ishlar va buzuvliklar qiladilar, hech tuzalmaydilar! Qavm ojiz qolib, bunga javob topa olmadi.

«Sen, albatta, sehrlanganlardansan. Sen bizga o‘xshagan bashardan boshqa hech narsa emassan. Agar rostgo‘ylardan bo‘lsang, oyatmo‘jiza keltir» (*Shu'aro surai 153-oyat*), dedilar.

Abul Hasan Ali Hasan an-Nadaviy

Tarjimon Anvar Ahmad